

PROFESSIONAL TA'LIMDA MATEMATIK QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH METODLARI.

Axmedova Mashhura Muzaffarovna

*G'ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi
matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika fani, uni o'qitishning zamonaviy kasb egalariga beradigan imkoniyatlari, turli shaxsga yo'naltirilgan metodlar haqida so'z borgan.

Аннотация: В данной статье говорится о науке математике, возможностях ее преподавания современным специалистам, а также различных личностно-ориентированных методах.

Abstract: This article talks about the science of mathematics, the possibilities of its teaching for modern professionals, and various person-oriented methods.

Kalit so'zlar: professional ta'lim, raqobatbardoshlik tushunchasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim

Key words: professional education, concept of competitiveness, person-oriented education.

Ключевые слова: профессиональное образование, концепция конкурентоспособности, личностно-ориентированное образование.

Matematika fani barcha fanlarning fundamental asosi bo'lib, ayniqsa turli mutaxassisliklar va kasblarni egallashda matematikaga oid bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Professional ta'lim tizimidagi o'quvchi yoshlarni o'qitish mobaynida ularda umumiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Matematik bilimlar kasbiy ko'nikmalarni shakllantirib, ularning tahlil qilish va vaziyatni baholay olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Matematika darslarini o'qitish jarayonida har bir pedagogdan o'quvchilarning mutaxassisliklari, ularning qobbiliyatlari inobatga olingan holda darslarda shaxsga yo'naltirilgan, interfaol metodlardan samarali foydalanish muhimdir.

O'rganilayotgan matematik obyektidagi narsalarning O'xshash va farqli tomonlarini aniqlovchi metod taqqoslash metodi deyiladi. Taqqoslash metodi ham ilmiy izlanish metodlaridan biridir. Taqqoslash metodini matematika darslarida o'rganilayotgan mavzu materiallariga tatbiq qilishda quyidagi prinsi plarga amal qilinadi:

- 1) taqqoslanayotgan matematik tushunchalar bir jinsli bo'lishi kerak;
- 2) taqqoslash o'rganilayotgan matematik obyektidagi narsalarning asosiy xossalariga nisbatan bo'lishi kerak.

Matematika o'qitishdagi ilmiy izlanish metodlari

Ma'lumki, matematika fanini o'rganadigan obyekti materiyadagi narsalarning fazoviy shakllari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iboratdir. Ana shu shakllar orasidagi miqdoriy munosabatlarni aniqlash jarayonida matematiklar izlanishning ilmiy metodlaridan vosita sifatida foydalanadilar. Matematikadagi izlanishning ilmiy metodlari bir vaqtning o'zida matematikani o'qitishdagi ilmiy izlanish metodlari vazifasini ham bajaradi. O'qitishdagi ilmiy izlanish metodlari quyidagilardan iboratdir:

1. Tajriba va kuzatish.
2. Taqqoslash.
3. Analiz va sintez.
4. Umumlashtirish.
5. Abstraksiyalash.
6. Aniqlashtirish.
7. Klassifikatsiyalash.

Bugungi kunda, ma'lumot jamiyat rivojining strategik manbaiga aylanganda, zamonaviy ta'lim uzluksiz jarayon ekanligi ayon bo'ladi. Shu sababli, hozirgi paytda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda, bu yerda elektron vositalar axborot manbai sifatida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Zamonaviy o'quvchi elektron madaniyat dunyosida yashaydi. Axborot madaniyatida o'qituvchining o'rni ham o'zgarib bormoqda - u axborot oqimining muvofiqlashtiruvchisi bo'lishi kerak. Binobarin, o'qituvchi o'quvchi bilan bir xil tilda muloqot qila olishi uchun zamonaviy usullarni va yangi ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. THE ROLE OF EDUCATION IN ECONOMIC DEVELOPMENT: A THEORETICAL PERSPECTIVE. Ilhan OZTURK. Journal of Rural Development and Administration, Volume XXXIII, No. 1, Winter 2001, pp. 39-47.
2. Xudoynazarovich, S. A. (2024). TA'LIM MENEJMENTI. TA'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA QARORLARI.
3. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO 'NALISHLARI.
4. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. Gospodarka i Innovatsie., 48, 715-720.

5. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion faoliyatning ahamiyati.

6. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi omillar. Gospodarka i Innovacje., 46, 620-627.

7. Mahmudovna, G. G. (2024). Competitive strategies, the importance of using innovation in their implementation. Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology, 3(5), 8-14.

8. Mahmudovna, Q. G. (2024). Raqobat strategiyalari, ularni amalga oshirishda innovatsiyalardan foydalanishning ahamiyati. Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology, 3(5), 15-21.

9. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Gospodarka i Innovacje., 51, 191-195.